
BILASIZMI?



Bilasizmi?

Mehnat shartnomasida taraflarning rekvizitlari ko'rsatiladi

Yangi Mehnat kodeksiga ko'ra, mehnat shartnomasida mehnat shartnomasi tuzilgan sana va joy, mehnat shartnomasining raqami va uning taraflarining rekvizitlari ko'rsatiladi.

Xodimning mehnat shartnomasida ko'rsatiladigan rekvizitlari quyidagilardan iborat:

- familiyasi, ismi va otasining ismi;
- shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- yashash yoki turgan joyining manzili va u bilan bog'lanishga doir ma'lumotlar;
- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (mavjud bo'lganda);
- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i raqami.

Ish beruvchining mehnat shartnomasida ko'rsatiladigan rekvizitlari quyidagilardan iborat:

- mehnat shartnomasini tuzgan ish beruvchining nomi;
- ish beruvchining mehnat shartnomasini imzolagan vakili haqidagi ma'lumotlar;
- ish beruvchi tashkilotning joylashgan yeri (pochta manzili);
- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- ish beruvchilarning bank rekvizitlari;
- ish beruvchining aloqa ma'lumotlari (telefon raqamlari, elektron pochta manzili va boshqalar).

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-29 19:08:17